

XORAZMDA 1920-1945 YILLARDA SAN'AT SOHASIDA OLIB BORILGAN ISHLARNING MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

Urganch Davlat universiteti magistranti

Karimov Islom

Annotatsiya: maqolada Xorazm viloyatida san'at sohasida faoliyat ko'rsatgan insonlar va ularning yaratgan o'lmas san'at asarlari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: teatr, san'at, repertuar, aktyor, raqqosa, ashullachi.

Abstract: the article provides information about people who worked in the field of art in Khorezm region and their immortal works of art.

Key words: theater, art, repertoire, actor, dancer, singer.

Аннотация: в статье представлены сведения о людях, работавших в сфере искусства Хорезмской области, и их бессмертных произведениях искусства.

Ключевые слова: театр, искусство, репертуар, актер, танцор, певец.

Adabiyot bilan birgalikda san'at sohasi ham har qanday davrda, har qanday jamiyatda va har qanday sharoitda ham kuchli targ'ibot va tashviqot vositasi bo'lib kelgan. Shunday bir maskan borki bu yerda kishilar ma'naviy ozuqa olishi bilan birgalikda, o'rnak sifatida o'ziga ko'p narsa olib ketadi. Bu maskan teatrdir. Xorazm viloyatida ham bunday maskan mavjud bo'lib, u yuz yillik tarixga ega.

1922-yil 22-aprelda Xiva shahrida 12 san'atkordan iborat Xorazm Hukumat teatri (hozirgi Ogahiy nomidagi teatr) o'z ishini boshladi[1]. Yetuk san'atkor Masharif Polvonov boshchiligidagi hukumat teatri faoliyatini kichik sahna asarlaridan boshlab, tez orada to'laqonli dramatik asarlar sahnalashtirildi[2]. Vaqt o'tishi bilan teatr xalq orasida hurmat topa boshladi. Teatr sahnalarida Hamzaning "Boy ila xizmatchi", "Xiva inqilobi", "Tuhmatchilar jazosi", "Zaharli hayot", Mannon Uyg'urning "Farg'ona fojialari", "Qarmoq", "Telefon", "Turkiston tabibi", G'ulom Zafariyning "Erk bolalari" pesalari tomoshabinlarga taqdim qilindi.

1923-yilning kuzida birinchi marta Fotixiy Burnoshning “Zuhra va Tohir” asari sahnaga qo‘yilishi Xorazm sahna san’atining katta yutug‘i bo‘ldi. Asarni sahnalashtirishda Masharif Polvonov, Yoqub Devonov, Oysha Bikchurina va boshqalarning xizmatlari katta bo‘ldi. Zuhra rolini Xanskaya, Tohir rolini Yoqub Devonov, Zuhraning otasi rolini Masharif Polvonov, Tohirning otasi rolini Xanskiy, kanizak rolini Oysha Bikchurinalar ijro etdilar.

Xorazm davlat teatri yil sayin tashkiliy jihatdan mustahkamlanib, o‘z repertuarini yangi asarlar hisobiga boyitib bordi. 1930-yillarga kelib teatr A.Majidiy inseniroykasida “Qo‘rqinchli Tehron”, arab dostoni asosida “Varqa Gulsho”, H.Hakimzodaning “G‘olibiyat”, A.Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, G‘.Zafariyning “Halima”, Xurshidning “Farhod va Shirin”, Cho‘lponning “Yorqinoy” dramalarini, shuningdek, mahalliy dramaturglar tomonidan yaratilgan “Qalandar og‘a” (“O‘zgarish alangalari”) va “Nasab qurboni”, “So‘ngi yulduzlar”, “Savodsizlik qanday èmon” asarlarini sahnalashtirdi. Xorazm davlat teatri sahnasida shu yillari rang-barang dramatik asarlar xalqning madaniy-ma‘naviy saviyasini oshirishda uning tafakkur doirasini kengaytirishda katta rol o‘ynadi.

1928-yilda Xiva teatr truppasiga Kolxoz-sovxozi teatri nomi berildi. 1933-yili teatrning Xorazm viloyatining markazi Urganchga ko‘chganligi uchun shu teatr negizida 4-iyunda Urganchda Xorazm okrug Davlat musiqali drama teatri tashkil etildi.

Teatr davr bilan hamnafas odimlash, odamlarning taraqqiyot yo‘lidagi intilishlarini aks ettirish borasida o‘z repertuarini rang-barang asarlar bilan boyita bordi. Tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi. Ayni shu davrda teatrga vohaning hamma tumanlaridan, respublikaning turli viloyatlaridan talantli aktyorlar tashrif buyura boshladi, jumladan, M.Sheroziy, Razzoq ota Omonov, K.Rahimov, K.Iskandarov, R.Boyjonova, Q.Boyjonov, S.Kamolov, M.Safaev, O.Xudoyorova, M.Xudoyorov, Sh.Devonova, O.Ochilova, S.Devonova, O.Qarieva, I.Hajiev, S.Hajieva, R.Musaev, S.Musaeva, V.Fayozov, O‘.G‘ayipova, Z.Qabulov, Tamaraxonim, R.Shakirov, I.Qasimov, Yusufjon qiziq, A.Turdiyev, S.Alimov, M.Otajonov, Sh.Ramazonov kabi

talantli aktyor va sozanda, rejissyor, rassomlar, teatr tashkilotchilarning kelib qo‘shilishi teatrni yanada yuksak pog‘onalarga ko‘tarishiga, uning musiqali drama teatriga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Ana shunday katta kuchga, imkoniyatga ega bo‘lgan teatr K.Yashinning “Yondiramiz”, “Nomus va muhabbat”, “Gulsara”, “Tor-mor”, N.Safarovning “Uyg‘onish”, Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, “Holixon”, K.Gossining “Malikai Turandot”, Gogolning “Revizor”, Navoiyning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” hamda “Tohir va Zuhra” kabi asarlarini zo‘r mahorat bilan sahnalashtirishga muvofiq bo‘ldi.

Xorazmda Yevropa rusumidagi o‘zbek teatrining shakllanishida rus sahna ustalarining gastrollari va viloyatdagi faoliyati ham muhim rol o‘ynadi. Ular orqali tomoshabin nafaqat yevropacha teatrning shakllari bilan, balki milliy aktèrlik an‘analari bilan ham yaqindan tanishdi.

Xorazm teatri ijodkorlari bilan birlashib spektakllar sahnalashtirildi. Rus rejissèrlari Xorazm teatrida sahnalashtirgan spektakllar viloyatimiz teatr vakillari uchun maktab vazifasini bajardi. O‘sha paytlarda yurtimizda gastrolda bo‘lgan tatar, ozarbayjon, arman truppalarning faoliyati, turkiy xalqlar tillaridagi o‘xshashlik yevropacha teatr shaklini o‘zlashtirish va yangi o‘zbek teatrining jadal shakllanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi. 30-yillarning oxiri va 40-yillarning boshiga kelib, Xorazm davlat teatri shu darajaga ko‘tarildiki, endi har qanday murakkab asarlarni ham sahnalashtirish imkoniyatiga ega edi.

Bosit Halilning “Oshiqlar” spektaklining yaratilishi teatr jamoasining katta yutuqlaridan biri bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida teatr aktèrlari harbiy gospitallarda, komissariatlarda, zavod va fabrikalarda, kolxoz va sovxozlarda xalqimizning mardligini tarannum etuvchi tomoshalar ko‘rsatib, dardchil odamlar qalbida g‘alabaga ishonch, xonadonlariga xursandchilik va ezgulik ato etganlar.

S.Abdullaning “Qurbon Umarov”, K.Yashinning “Davron ota”, “O‘lim bosqichlariga”, Rajabboevnig “Tilla Matèqubov”, V.Faèzovning “Qasam” kabi o‘nlab

asarlar muvaffaqiyatli sahnalashtirildiki, bu asarlar orqali teatrning ijodiy kamolot sari tashlagan odimi salmoqli va salobatli bo'ldi.

II jahon urushi boshlanishi bilan madaniyat dargohlari, ijodiy uyushmalar, teatr, kino, radio - barchasining faoliyati birinchi navbatda urushda g'alabaga erishishga, bu yo'lda esa jangchilarni ruhlantirish, ularga ma'naviy kuch – qudrat bag'ishlash, vatanparvarlik va qahramonlik g'oyalarini tarannum etish, odamlar ongiga g'alabaga ishonch ruhini singdirishga xizmat qilgan.

O'zbekistonlik san'at va madaniyat xodimlari urush boshlangandan to yakunlangungacha xalqni buyuk g'alabaga undab, Vatanni sevishga, uni himoya qilishga chaqirganlar.

1941-yil 23 - iyundayoq, Butun Ittifoq adabiyot va san'at xodimlari Kasaba uyushmasi Markaziy Komiteti adabiyot va san'at xodimlariga murojaatnoma e'lon qilib, ularning ham barcha sovet fuqarolari qatori Vatanni himoya qilish kabi muqaddas burchlarini bajarishga chaqirdi.

1941-yil 3 - iyulda Butun Rossiya teatr jamiyati ham xuddi shunday tashabbus bilan chiqib, bu tashabbusga ko'ra adabiyot, teatr va san'at xodimlaridan iborat targ'ibot brigadalari tuzila boshladi. Bu brigadalar jang maydonlarida turli tadbirlar o'tkazish asosida askarlarni ma'nan qo'llab – quvvatlash, ularning fashizm ustidan erishiladigan g'alabaga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash vazifasi yuklandi[3].

Bu murojaatnomalarga javoban O'zbekistonSSR KP(b)MK rahbari U.Yusupov 1941-yil 6-noyabrdagi yig'ilishida: "...san'at sohasi dushmanni tor – mor qilish yo'lidagi umumxalq harakati g'oyalarini o'zida to'liq mujassam qilishi lozim bo'lib,... bu kino, teatr, matbuot va og'zaki targ'ibot – tashviqot jarayonlariga ham taalluqlidir", deya ta'kidlagan edi[4].

Bundan tashqari, 1941-yili urush boshlanishi bilan Usmon Yusupovning tashabbusi bilan Toshkent viloyatining Yangi yo'l tumanida musiqali drama teatri tashkil etildi. Bu teatrga o'zbekistonlik barcha san'at ahli, shuningdek, san'atkor xotin – qizlar ham jalb etildi. Jumladan, bu san'at maskanida xorazmlik Onajonbibi Sobirova, Soraxon

Olloberganova, Kommuna Ismoilova kabi san'at arboblari bor edi. Bu teatrda bir necha kontsert guruhlari tuzilib, ular urush yillarida frontdagi jangchilarga va front ortidagi mehnatkashlarga xizmat ko'rsatganlar.

Natijada 1942-yilning o'zidayoq O'zbekistonda 14 ta ijodiy front brigadalari tuzilib, urush frontlarida jangchilarga, kasalxonalaridagi yarador askarlarga o'z ijodlarini namoyish qildilar[5].

1939-yilning yozida Onajon Sobirova boshchiligida tuzilgan Xorazm garmonchilar ansambli, respublika bo'ylab uyushtirilgan ijodiy safarlarni to'xtatib, ushbu guruh ayollari Xorazmga qaytib xalqqa xizmat qilishni davom ettirdi. Keyinchalik Onajon Sobirova Xivada Qurbon sozchi Ismoilov tashabbusi bilan tuzilgan "Keksalar" ansambliga qo'shilib, bu ansambl ijodiy faoliyati davomida, chekka qishloqlarda ham bo'lib, tomosha natijasida tushgan pul mablag'larini frontdagi jangchilarga jo'natishdi.

Onajon Sobirova qo'shiq aytish, doston ijro qilish bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. "Keksalar" ansamblida ishlab yurgan paytlarida jangchilarga bag'ishlangan qo'shiqlar to'qib, musiqa bastalab, o'zi ijro qilib, olqishlarga sazovor bo'ldi. "Jangchi qahramonlar" she'ri shular jumlasidandir[6].

Bundan tashqari har bir tumanda truppalar faoliyat ko'rsatib, bular xalq ruhiyatini ko'tarishda katta rol o'ynadi. Bu truppalardan talantli artistlar, bastakorlar, shoirlar yetishib chiqdi. Jumladan, Xivada garmonchi xotin-qizlar ansambli tashkil qilindi. Bu truppa va ansambllar repertuarida ham urush mavzusi ustunlik qildi. Xiva truppasida Onajon Safarova, Onabibi qori Otajonova-Ojiza kabi ijodkor shoiralalar o'z iqtidorlarini ko'rsatib, ularning repertuarlarida ham vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, urushga nafrat, front va mamlakat ichkarisidagi xalqning fidokorona mehnati kabi masalalar ifodalandi. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi yillarida Onabibi qori Otajonova-Ojiza yuksak tashviqot kuchiga ega bo'lgan she'rlari bilan xalqni safarbarlikka undadi[7].

Urush yillarida raqs maktablari va raqqosalarning o'rni ham alohida bo'lgan. Ko'ngilochar raqslari bilan raqqosalar, front hamda front ortidagi askarlar va mehnatkash xalqqa ko'tarinki ruh bag'ishlagan. Xorazm raqs maktabining shakllanishida bir qancha

ayol ijodkorlarning hissasi katta bo'lgan. Bular: Onajon Sobirova, Roviya Otajonova, Soraxon Olloberganova, Rimajon Matkarimovalardir. Shular orasida Roviya Otajonova ismli afsonaviy raqs malikasi bo'lib, u bir qancha raqslarni ijro etgan. U Onajon Sobirovaning shogirdi sifatida urush yillarida o'z raqslari bilan frontlarda jangchilarga hamda front ortidagi mehnatkash xalqqa ma'naviy ozuqa bag'ishlagan.

Urush yillari Sheroziy Yoqubov, Matyusuf Xarratov va shoir Partav bilan birga Onajonbibi Sobirova, Soraxon Olloberganova kabi ayol san'atkorlardan iborat Xorazm ansambli qishloqlarda, shaxtalarda, zavod-fabrikalarda mehnatkash ommani fashizmga qarshi kurashga chaqiribgina qolmasdan, balki ular bilan yelkadosh bo'lgan, o'z kontsertlari orqali ularning ko'nglini ko'targan.

Bu guruhdagi yana bir mashhur san'atkor ayol Soraxon Olloberganova bo'lib, guruhning asosiy garmonchi qo'shiqchilaridan biri sifatida urush yillarida asosan front orti mehnat jabhalarida faoliyat olib borgan. Soraxon Olloberganovanning matonatli mehnati qadrlanib, unga "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni berilgan.

Ismoilova Kommuna II jahon urushi yillari Gavhar Rahimova rahbarligidagi Zebo G'anieva nomidagi xotin-qizlar kontsert brigadasida ishtirok etgan. Urush yillarida ko'rsatgan fidokorona mehnatlari va musiqa san'atiga qo'shgan hissasi uchun xonanda, 1964-yilda "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'lgan[8].

Xulosa sifatida qayd qilish lozimki, 1920-1945 yillarda Xorazm viloyati san'atning barcha yo'nalishlarida faoliyat olib borgan kishilar turli qiyinchiliklar bo'lishiga qaramay ijoddan to'xtamadilar. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan barcha san'at ahli urush davri sharoitiga o'tib, o'zlarining bu boradagi faoliyatlari bilan g'alabaga muhim hissa qo'shdilar. Urush yillarida turli ansambllar, musiqa va san'at guruhlari, truppalar, raqs-san'at maktablari, qo'shiqchilar, raqqosalar va umuman san'at sohasi vakilalari faoliyat olib borib kishilarni g'alabaga undadilar. Ular o'z san'atlari bilan, front hamda front ortidagi askarlar va mehnatkash xalqqa ko'tarinki ruh bag'ishladilar.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. O'zbekiston teatrlarida. №11. 20.12.1982.
2. O.Sobirov „Xorazm vohasi teatrlari 1917-1941 y.“. - T.: 1991 y.
3. Mobilizatsiya obshestva na vedenie voyni // V ensiklopedii: Velikaya Otechestvennaya voyna 1941-1945 godov. V 12 t. Tom 11. Politika i strategiya Pobedi: strategicheskoe rukovodstvo stranoy i Voorujennimi silami SSSR v godi voyni. – M.: Kuchkovo pole, 2015. – S. 559.
4. Uzbeksckaya SSR v godi Velikoy Otechestvennoy voyni (1941-1945 gg.). T. 1. – S. 63
5. O'zMA, R-2087-fond, 1-ro'yxat, 83-yig'ma jild, 15-varaq .
6. Anash xalfa. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2006. – B. 9.
7. Sabirova N. Xorazm baxshi va xalfachilik an'analari / Monografiya. – Toshkent: O'zR FA «Fan» nashriyoti, 2021. – B. 250.
8. [Jalilov](#) A. Kommuna Ismoilova. – T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2009. – S. 7.